ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

SAN'AT TARIXI FANIDAN INFOGRAFIKA VOSITALARI ASOSIDA TASHKIL ETILADIGAN O'QUV LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Mirboboyeva G, Muratov U
Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada san'at tarixi fanidan infografika vositalari asosida tashkil etiladigan o'quv loyhasini ishlab chiqish mavzusida ma'lumotlar yoritilgan o'rta asrlarni modasi insoniyat tarixidagi juda bir antiqa moda xisoblanib shu davr uslubini dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni interfaol o'qitish metodlarini qo'llab dars o'tish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: san'at tarixi, kostyum, forma, tabiat, simmetriya, funksiya, rang, chiziq, ornament, peyzaj, plastika, qiyalik darajasi, proza, proporsiya, gotika uslubi,shakllar.

Аннотация: В статье представлена информация о разработке образовательного проекта в области искусствоведения на основе инфографики. Средневековая мода считается древнейшим течением моды в истории человечества, а также представлены сведения о преподавании стиля этого периода с использованием интерактивных методов обучения и педагогических технологий в учебном процессе.

Ключевые слова: искусствоведение, костюм, форма, природа, симметрия, функция, цвет, линия, орнамент, пейзаж, пластика, наклон, проза, пропорция, готический стиль, формы.

Abstract: This article presents information on the development of an infographic-based educational project in art history. Medieval fashion is considered the oldest fashion movement in human history. It also provides information on the teaching of this period's style using interactive teaching methods and pedagogical technologies in the educational process.

Keywords: art history, costume, form, nature, symmetry, function, color, line, ornament, landscape, sculpture, tilt, prose, proportion, Gothic style, forms.

Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'hna mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof mihit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda namunalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyatning ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy-tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashdi.

Ibtidoiy jamoa davri eng uzoq davom etgan tarixiy bosqich bo'lib, odamlarning ilk hayoti, dastlabki tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga o'z munosabatlarini bildira boshlagan davrdir. Mazkur bosqich yer yuzining qaryib, barcha joylarida bosib o'tilgan. Bu tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning dastlabki tasavvuri, badiiy-estetik his-tuyg'ulari shaklana boshlagan. O'z davrining sodda hayotiy ko'rinishini ifodalovchi devoriy suratlar, dekorativ uslubdagi shartli harakterli haykaltaroshlik namunalarida buni kuzatish mumkin. Bu kabi tasvirlar asosan g'or devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan animalistik janrga xos namunalardan iboratdir. Ibtidoiy tasvirlar tabiiy bo'yoqlarda ishlanishi va asosan natural kattalikka egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Ibtidoiy jamoa hayotida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllana boshlagan ilk sinfiy jamiyat davridan insonlar ongida va badiiy tafakkurida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu quldorlik jamiyati hisoblanib, san'atning ta'sir kuchidan mafkuraviy maqsadda foydalanish an'anaga aylana

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

boshladi. Bu holni qadimgi dunyo mamlakatlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Tasviriy san'at quldorlik jamiyati hukumdorlarining qudratini namoyish etish bilan birga, eng qadimgi diniy dunyoqarash bilan bog'liq tushunchalarga ijodiy munosabatda rivojlanib keldi.Yer yuzidagi dastlabki madaniyat o'choqlarining shakllanishi va rivojlanishi, tasviriy

san'atning haykaltaroshlik, rangtasvir turlari hamda me'morlikda yaratilgan badiiy yodgorliklar xususida mulohazalar ushbu fan orqali olib boriladi.

San'at asarida- bir butun, murakkab tashkil etilgan tizim bo'lib, unda barcha elementlar badiiy g'oyani amalga oshirishda ishtirok etib, dunyo asarini hosil qiladi. San'at tilini o'rganish asarni to'liq va chuqur tushunishga yordam beradi. San'at asarlarini tahlil qila olish uchun uni inson hayotida, jamiyatda o'rnini va uning funktsiyalarini belgilay olish lozim. San'at tarixini o'rganish san'atni tizimi, turlari, janrlari, uslublari, yo'nalishlari va oqimlarini bir- biridan ajrata olish va turli yo'nalishdagi badiiy maktablari bilan tanishish imkonini beradi.

San'at jamiyatda bir necha funktsiyalarni bajaradi. Ularning ichida ahamiyatga ega bo'lganlaridan bilim orttirishga xizmat qiluvchi, g'oyaviy, qadrini yaxshi tushuna bilovchi, belgilar sistemasi, his tuyg'uni rivojlanishi, estetik, tarbiyaviy, gedonizm (huzur-halovatga intilish insonga xos oliy hislat, deb hisoblovchi axloqiy ta'limot), ijodiy fikrlash (evristik), kommunikativ, istiqbolli (futuristik), art-terapevtik va boshqalar mavjud.

"San'at tarixi" fanini o'rganayotgan talaba:

- jahon san'atining har bir taraqqiyot bosqichi xususiyatlarini, inson ongi va hissiyotining shakllanishidan tortib bugungi kungacha yaralgan va yaratilayotgan san'at asarlari namunalari, san'at asarlarini to'g'ri ko'ra bilish, ularni mustaqil tahlil etish, shuningdek, haqiqiy va qalbaki san'at asrlari haqida tasavvurga ega bo'ladi;

- san'at turlarining klassifikatsiyasi va janrlarini, jahon san'ati tarixida asosiy uslublar va badiiy yo'nalishlarni, tasviriy san'atdagi zamonaviy oqimlar va vakillarini, milliy-badiiy maktabning boy merosi va o'ziga xosligi, san'at tarixi yo'nalishilari va nazariyalari, zamonaviy san'at maktablarini bilish va ulardan foydalana oladi;

- dunyo san'ati haqida ma'lumot olish talabalarning nafaqat ilmiy bilimlarini boyitadi, balki ularni fikrlashga undaydi, mustaqil mushohada qilgan holda, bugungi mustaqil vat inch O'zbekistonda yashayotganlari uchun shukrona aytish va ajdodlarga munosib avlod bo'lishga dav'at etadi.

Qahramonlar o'rtasida ma'naviy va plastik bog'liqlik bo'lib, ular nafaqat bir-biri bilan muloqotda, balki suhbatdoshining so'zlariga ahamiyatli tarzda turli xil burilish va holatlar bilan javob beradi.

Tasvirlarda avliyo Petr va Ioann cho'qintiruvchi tuyg'ularga boy qilib ko'rsatilgan. Soborning janubiy qismidagi cherkov otalarining obrazlari individuallashtirilgan. Shimoliy tomondagi portal haykallari bo'yicha yangilik yaratishga harakat qilingan, unda: gotika uslubidagi haykallar guruhi hosil qilingan. Mariya va Elizaveta dialoglari murakkab harakatdagi figuralar orqali tasvirlangan.

Shartr sobori ansambllari o'z ichiga XII-XIII asrlardagi vitrajlarni oladi.Ular bu kungacha o'z ko'rinishini saqlab qolgan. Shartr soborining vitrajlari mavzulari xilma-xil: avliyo va payg'ambarlarning tasvirlari, dehqonlar hayotidan namunalar va 100 ta kompozisiyaga yaqin tasvirlar ishlangan. Eng mashhur tasvirlaridan biri bu janubiy tomonda joylashgan XII asrda ishlangan bibi Maryam, avliyo Evstrafiya va XIII asrda ishlangan Buyuk Karl tasvirlari hisoblanadi.

XII-XIII asrlarda vitraj texnikasining ikki turi ishlatilgan: "grizayl" va "sujetli". "Grizayl" texnikasi - qora va kulrang moy bo'yoqlar bilan shaffof oyna ustiga chiziladi. Syujetlar rangli oynalar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

ustiga chizilgan.XII asrda oynaga tasvirlar ikki marotaba tushirilgan, ya'ni oldin tasvirlar chizilib so'ngra soyalar tushirilgan. Har bir chizmadan so'ng oynani olovda kuydirib olingan. XII asrga kelib oynaga tasvirlarni tushirishda bir marotaba olovda kuydiriladigan bo'ldi. Shartr soboridagi XII asr vitraj tasvirlaridagi ranglar XIII asrdagiga nisbatan ancha to'q ranglardan foydalanilgan. Bu vitrajlar ko'rinishi oftobli kunda ibodatxona ichiga yorqin qizil bliklarni, bulutli kunlarda esa inter'yer ilohiy havorang yonib turganligini ko'rish mumkin.

Parij bibi Maryami sobori qurilishida (Notr-Dam de Paris) gotika me'morchiligining asosiy prinsiplarini ko'rish mumkin: markaziy nefning nayzali tutashmalari, nayzasimon oynalar, arkbutanlar, g'arbiy fasadning uch yoqlama perspektivali portallari ustidan yuqorilagan qirollar galereyasi joylashgan bo'lib, o'rtasida uchta katta aylanma oyna "atirgullar" va ikkita baland minoralardan iborat. Binoning old tomonida – ko'pgina haykallar joylashgan. O'rta asrlarda ko'pgina haykallar yorqin rangda bo'yalib zarhal yugurtirilgan tokchalarda joylashgan bo'lib, o'zida "Toshdagi bibliya" ni aks ettirgan.

Infografikaning namoyish etilishi bo'yicha turlari

Shunday qilib, barcha infografika 4 turga bo'linadi.

Infografik qo'llanma. Ushbu turdan foydalanib, jarayonni tushuntirish yoki biror narsani o'rgatish uchun harakatlar ketma-ketligini ko'rsatishingiz mumkin. Ma'lumotlarning butun qatorini tavsiflash uchun ramziy sxemalar yoki grafikalar yordam beradi. Har qanday ko'rsatmalarda ushbu tur juda keng qo'llaniladi.

Dinamik infografika. Ushbu ko'rinish jarayon yoki rivojlanish dinamikasini aks ettirish uchun mo'ljallangan.

Statik infografika. Qanday qilib raqamli ma'lumotlar va ilmiy dalillarni vizual qilish, shuningdek ularning bir-biriga bo'lgan munosabati? Statik infografikani tuzing. Qoidaga ko'ra, ular diagrammalar, diagrammalar va boshqa oddiy shakllarga ega.

Video infografikasi. Bu infografika yo'nalishidagi eng so'nggi zamonaviy tendentsiyalardan biri bo'lib, murakkab ko'p darajali ma'lumotlarni tomoshabinlarga vizual ravishda taqdim etishga yordam beradi. U deyarli barcha xilma-xil ma'lumotlarni vizuallashtirish yo'nalishlarini birlashtirib, ularni o'qish tufayli inson ongiga joylashtirishi mumkin. Qoida tariqasida, ma'lumotlarning qariyb 80 foizi birinchi ko'rishda eslab qoladi. Ushbu turdagi infografika tomoshabin tomonidan idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan eng samarali hisoblanadi.Shuni ta'kidlash kerakki, infografikada uning bir necha turlari bir-biri bilan birlashtirilishi mumkin.

Infografik rivojlanish bosqichlari

1. Yaratilish **semantik tushuncha**: ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimlashtirish.
2. Qurilish **"Skelet" infografik** (taxmin qilingan ma'lumotlar bilan matn bloklari).
3. Rivojlanish **grafik eskiz** infografik.
4. **Bezatish** infografik: matn va vizual elementlar birlashtirilgan.

Infografika unga ehtiyojni aniqlaydi. Qoida tariqasida, bu matn shaklida yomon qabul qilinishi qiyin ma'lumotni vizual ravishda namoyish qilish zarurati. Dars mashg'ulotlari uchun loyihalanayotgan infografika albatta samarali bo'lishi kerak. Tekshirishning oson usuli - barcha matnlarni olib tashlash. Ma'nosi saqlanib qolsa - bu infografika. Ma'nosi yo'qolsa - shunchaki matn uchun rasmlar chizilgan.

Xulosa

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Men interfaol pedagogik texnologiya deganda talabalarga mustaqillik berishni tushunaman. Talabalarga bunday imkoniyatni berish, bu faqat talabalarning o‘zlarida intilish paydo qilishga va pedagogik mehnat samarasini ko’tarishga sabab bo’ladi. Bunda an’anaviy darsdan farqli talabani mustaqil fikrlashga, faol bo’lishga va bilimlarni, ko’nikma va malakaga aylantirishga motiv uyg’otadi. Zero, davr talabi bo’yicha yosh mutaxassaslarni bilimli, mustaqil fikrlaydigan, innovator, komil inson sifatida shakllanishida pedagogik texnologiyalarning asl maqsadi namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.

2.Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.

3.Mirboboyeva G. A. QO ‘LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O ‘RGANISH //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.

4.Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO ‘YASHDA ISHLATILADIGAN BO ‘YOQLAR HAQIDA MA’LUMOTLARNI O‘RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307. 5.Mirboboyeva G. A. et al. ZIG ‘IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.

6. MG Abdusattorovna, UN Qosimjonovna Retro style in modeling women's clothing Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376 7.Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov Davron Shamsiddin ogli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academicia globe: inderscience research, 4(03), 246–251.

8. G.A. Mirboboyeva. (2025). "CHARM – MO'YNA KREATIV GRAFIKASI TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVASION INTERFAOL METODLAR QO'LLASH. Multidisciplinary journal of science and technology, 5(10), 1103–1108.